

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

O'QUVCHILARDA KITOBOXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRI SHART-SHAROITLARI

*Murodova Nargiza Baxtiyorovna
Xalqaro Nordik unversetiti magistranti*

Annotatsiya: Mazkur ishda o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Kitobxonlik madaniyati nafaqat o'quvchilarni kitoblar bilan tanishtirish, balki ularni adabiyotga nisbatan hurmat, ongli yondashuv va estetik baholash ko'nikmalarini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Tadqiqotda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik sharoitlar, o'quv dasturlarining mazmuni, o'qituvchilarning roli va o'quvchilarga kitob o'qishning foydasi haqida ma'lumotlar taqdim etiladi. Shuningdek, oilaning, maktabning va jamiyatning birligidagi sa'y-harakatlari o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda qanday muhim ahamiyatga ega ekanı ko'rsatiladi. Tadqiqotda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, interaktiv yondashuvlar va ijtimoiy muhitning roli ham o'r ganiladi. Yozma ishda kitoblarining o'quvchilarni axborot bilan ta'minlash, ularning dunyoqarashini kengaytirishdagi o'rni ham ko'rib chiqiladi. Bu tadqiqot o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning samarali metodlarini izlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar. Kitobxonlik madaniyati, o'quvchilar, shakllantirish, shart-sharoitlar, pedagogika, o'qish, o'qituvchilar, o'quv dasturi, innovatsion texnologiyalar, interaktiv yondashuv, ijtimoiy muhit, mактаб, jamiyat, axborot, dunyoqarash, kitob, o'qishning foydasi, bilim, ko'nikmalar, adabiyot, ta'lim.

Ta'lim jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik jihatlarini takomillashtirish bilan bog'liqdir. Bu esa o'sib kelayotgan avlod ma'naviyatini istiqlol talablari asosida shakllantirish vazifalarini amalga oshirish, maktab kutubxonalaridagi kitob fondi va adabiyotlarni o'quvchilar o'rtasida keng va maqsadli targ'ib qilish ishlarining samaradorligini oshirishni talab etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkiliy-pedagogik jihatdan tizimli tahlil etish, o'z navbatida, bu jarayonning belgilarini o'rganishni talab etadi. Ana shu tizimning markaziy qismlaridan biri - maktab kutubxonasining Kitob fondidir.

Maktab kutubxonasining kitob fondi asosan darsliklar va fanning turli sohalariga oid nashrlar, o'qituvchilar uchun metodik adabiyotlar hamda badiiy asarlardan tashkil topadi. Kitob fondiga o'quv dasturlari bo'yicha sinfdan tashqari o'qish uchun adabiyotlar, maktab o'quvchilari va pedagogik jamoa uchun vaqtli matbuot nashrlari, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-pedagogik va alohida fanlarni o'qitish metodlariga oid adabiyotlar ham kiradi. Bu esa kitob fondida universal yoki boshqacha qilib aytganda, barcha fan tarmoqlariga oid asarlar bo'lishini talab etadi. Kitob fondi o'quvchilarga to'laqonli ta'lim-tarbiya berishning barcha yo'nalishlari: aqliy, axloqiy, vatanparvarlik, mehnat, estetik, jismoniy ta'lim-tarbiya hamda kasbga yo'naltirishga oid adabiyotlardan ham iborat bo'ladi.

Kutubxona fondining asosini kitob tashkil etishi lozim. Kitoblar - maktab kutubxonasining asosiy ish mazmunini bajarishga xizmat qiluvchi nashrlardir. Ularga maktabning o'quv dasturi bo'yicha va sinfdan tashqari o'rganishi shart bo'lgan badiiy asarlar va dasturga kiritilmagan klassiklar hamda mashhur zamonaviy yozuvchilarning asarlarini kiritish mumkin.

Shu bilan bir qatorda, ijtimoiy-siyosiy, tabiatshunoslikka oid ilmiy-ommabop adabiyotlar, texnika, qishloq xo'jaligi, tibbiyot va soo'liqni saqlash, san'at, falsafa, jismoniy tarbiya va sport,

Ilmiy elektron jurnali

adabiyotshunoslik, pedagogika, fan sohalari bo'yicha metodik adabiyotlar kiritilishi kerak. Shuningdek, maktab kutubxonasining kitob fondiga o'quvchilarning o'quv vazifalarini bajarishi hamda pedagoglarning darsga tayyorlarlik ko'rishlari uchun zarur bo'lgan lug'atlar, ma'lumotlar, ensiklopedik asarlar va turli bibliografik nashrlar kiritilishi zarur. Albatta, o'quv dasturiga kirmagan adabiyotlar, ya'ni ma'lumotnomalar, ensiklopediyalar kamroq nusxada olinadi, chunki ular uchun mablag' ajratish imkoniyati muayyan darajada cheklanganligini ham e'tibordan soqit qilmaslik zarur.

Ma'lumki, maktab kutubxonasi fondining tarkibi va nashrlarning nusxasi mактабда та'lim qaysi tilda amalga oshirilishi, qanday xorijiy tillarning o'rgatilishi, o'quvchi va pedagogik jamoaning tarkibi, milliy xususiyatlari, har bir maktabning o'z oldiga qo'ygan vazifasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Maktab kutubxonalarining har birida mustaqil respublikamizning ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid adabiyotlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev asarlari, davlat tamg'asimilliy bayrog'imadhiyasi mazmunini ochib beruvchi, respublika siyosati, iqtisodi va madaniyatiga oid adabiyotlar bo'lishi zarur.

Aniqlangan ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, bugungi kunda maktab kutubxonalari fondida asosiy o'rinni badiiy asarlar egallab Kelmoqda. Ma'lumki, badiiy asarlar insonni har tomonlama rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Badiiy asarlar mazmuni O'zbek va jahon klassiklari asarlari, xalq oo'zaki ijodi, hozirgi zamon mashhur yozuvchilarining asarlari, she'riy to'plamlar, ilmiy-fantastik va sarguzasht, geografik kashfiyotlar haqidagi adabiyotlar, tabiat va unga muhabbat, hayvonot dunyosi, bolalar va o'smirlar hayoti haqidagi adabiyotlardan tashkil topishi zarur. Badiiy asarlar, asosan, "Maktab kutubxonasi", "Jahon bolalar adabiyoti kutubxonasi", "Xalq kitoblari", "Ajoyib kishilar hayoti" kabi turkumlarda chiqqan nashrlardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqli.

O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda tabiiy-ilmiy adabiyotlarning ahamiyati kattadir. O'quvchilarda fan asoslari, uning tarixi, tabiatshunos olimlarning hayoti va ijodi haqidagi adabiyotlar katta qiziqish yyg'otdi. Kutubxona fondida yuqorida masalalar bo'yicha ilmiy-ommabop adabiyotlar hamda mashhur fan-arboblari haqidagi nashrlar bo'lishiga katta e'tibor berilishi lozim. Bunday adabiyotlar O'zbek tilida kamroq chop etilganligi sababli rus tilida chop etilgan asarlardan ham foydalanish mumkin.

O'quvchilarning umumtexnikaviy dunyoqarashini kengaytirish uchun kutubxona fondida texnikaga doir adabiyotlar ham to'planishi maqsadga muvofiqli. Shu boisdan ham bolalarning texnik ijodkorligini o'stirishga yordam beruvchi adabiyotlarga e'tibor qaratish lozim. Bu adabiyotlar jumlasiga yosh matematiklar uchun adabiyotlar, tuproq, o'simliklar va daraxtlarni o'stirish, hayvonlarni boqish va boshqalar haqidagi nashrlar kiradi.

Tasviriy san'at, musiqa, me'morchilik, teatr, kino, fotografiya, aktyorlar va san'atkorlar hayoti va ijodi, shuningdek, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarimizni tiklash haqidagi asarlar o'quvchilarda badiiy estetik didni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Maktab kutubxonasi fondini shunday asarlar bilan boyitish lozim.

Maktab kutubxonasi fondini shakllantirish, adabiyotlar tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ya'ni boshlang'ich sinflar I-IV, umumiyl o'rta ta'lim tizimining o'rta bo'g'ini V-IX va yuqori X-XI sinf o'quvchilari hamda o'qituvchilar uchun tabaqlashtirilgan kitob fondini yaratish muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Hozirgi sharoitda maktab kutubxonalari fondining sohalar bo'yicha tarkibi, o'quvchilarni kitob bilan ta'minlanish me'yori qanday bo'lishi kerak? degan savol ko'pchilik kutubxonachilar va o'qituvchilarni qiziqtirmoqda. Bunga aniq me'yorlarni ko'rsatishning iloji yo'q, chunki maktab kutubxonasi fondining tarkibi shu maktab joylashgan mintqa (shahar yoki qishloqda ekanligi), maktab turi, ta'lim qaysi tilda amalga oshirilishi va boshqa bir qator sharoitlarga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muminov, III. O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish: Pedagogik yondashuvlar, Tashkent, 2019.
2. Xolmatov, Ф. Pedagogika va kitobxonlik: O'quvchilarning axborot savodxonligini shakllantirish, Toshkent, 2020.
3. Rasulov, A. Maktabda kitob o'qish madaniyati va uning pedagogik ahamiyati, Samarqand, 2018.
4. Sharipov, M. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va kitobxonlik madaniyatining shakllanishi, Buxoro, 2017.
5. Tashkent, H. O'quvchilarda axborot va madaniy ko'nikmalarni rivojlantirish, Tashkent, 2021.